

## BOLALARNI HUSNIXATGA O`RGATISH

**Nabiyeva Ma'rifat Abdullajonovna**  
*Namangan viloyati Kosonsoy tumani*  
*6-sonet muktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu metodik tavsiya boshlanǵich sinf o'quvchilarida husnixat sanqatining o'rgatilishning ahamiyati, husnixat o'rgatishning metodikasi hamda husnixat gigeynasi haqida fikr yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *Chiroyli yozuv, qo'l harakati, bo'g'in, so'z*

Chiroyli yozuvga o'rgatish umumiylidik qoidalar bilan birga yozuv malakasini shakkantiruvchi qoidalarni ham o'z ichiga oladi. Umumiylidik qoidalar, takroriylik ko'rgazmalilik yosh va o'ziga xos xususiyatlarni hisobga olish, tushunarlilik, onglilik xusnixat qoidalarni amalga oshirishda juda muhimdir. Ayniqsa, ko'rgazmalilik prinsipi chiroyli yozuv malakasini singdirishda muhim rol o'ynaydi. Har bir o'quvchi u yoki bu harfni tushunib, yozilishini, harflarning bir-biriga bog'lanishini, kichik va bosh xarflarning bir-biriga nisbatini, balandligini, qiyaligini, avtoruchkani ushslash va to'g'ri o'tirish qoidalarni yaxshi bilishlari lozim. Yozuvga o'rganish davrida olingan bilim va malakalar o'quvchilar uchun doimiy qoida bo'lib qolishi zarur.

Chiroyli yozuv malakalarini o'stirishda eng birinchi qoida bu gigiyenik talablar va yozuvning qiyaligini to'g'ri saqlashga o'rgatilib, so'ngra harf va harf elementlari orasidagi masofani chandalab yozish qoidalari singdirib boriladi. Bu qoidalarni keyinchalik ikkinchi sinfda o'tkaziladigan xusnixat darslarida takomillashtirilib boriladi. Bu qoidalarni o'quvchilar esda saqlab qolishi mumkin. Har bir yozuv mashqi aniq maqsad asosida oson tushunarli olib borilishi kerak. Buning uchun chiroyli yozuvga o'rgatishning turli usullaridan foydalanish lozim. Chiroyli yozuv mashinkalarini esdan chiqarmaslik uchun sistemali ravishda takrorlab borish juda muhimdir. Bolalarning yozuv malakalarini hosil qilishda ularning yosh va o'ziga xos xususiyatlari:

barmoq va qo'l muskullarining harakat tezligi, markaziy nerv sistemasi tomonidan nerv muskullarining bajarilishi hisobiga olinishi lozim. Ayniqs'a, olti yoshli bolalar uchun yozuv jarayoni juda qiyindir. Bu davrda ularning jismoniy o'sishlarini, albatta, hisobga olish kerak.

Olti yoshli bolalar, qo'l harakatini uzmay, ayrim harf elementlarini xarflarni, keyinchalik sodda elementli so'zlarni yoza oladilar. Bu davrda ulardan ayrim qiyin elementli, cho'zinchoq doira shaklidagi harflarni qo'l harakatini uzmay yozishni talab etish mumkin emas. Yozilishi qiyin harf va so'zlarni asta-sekin mashq qildirish orqali yil davomida o'rgatib boriladi.

Ikkinchi sinfdan boshlab bolalar qo'l harakatini uzmay, cho'zinchoq doira shaklidagi xarflardan tashkil topgan harf, bo'g'in va so'zlarni yozishga o'rgatiladi. Chiroyli yozuv darslarida harflarning shakli ustida mashq o'tkazilganda oddiydan murakkabga tomon olib boriladi, chunki alfavitdagi barcha sharflar yozilish shakliga qarab gruppalarga ajratiladi. Bolalarni chiroyli yozuvga o'rgatishda o'qituvchi ularning o'ziga xosxususiyatlarini ham xisobga olishi shart. O'qituvchi har bir o'qituvchining qanday o'tishirini, ruchkani qanday ushslashini, daftar tutish holatini, xarflarni qanday yozayotganligini sekin yoki tez yozishini kuzatib borishi zarur. O'quvchilardagi bu imkoniyatlarni kuzatib borgan o'qituvchi chiroyli yozuv darslarini to'g'ri tashkil etadi, ayrim o'quvchilarga yakka-yakka yordam ko'rsatishda qrynalmaydi va ota-onalarga ham to'g'ri ko'rsatma bera oladi. Chiroyli yozuv malkasini shakllantirish faqat boshlang'ichch sinflardaemas. Balki yuqori sifnlarda ham davom ettiriladi.

Chiroyli yozuvga o'rgatish uchun bolalarning mакtabga qadam qo'ygan kunlaridan boshlab quyidagi vazifalarni bajarishlari talab etiladi:

1. Yozuv vaqtida partada to'g'ri o'tirish
2. Avtoruchkadan to'g'ri foydalanish
3. Daftardan to'g'ri foydalanish
4. Yozma va bosma harflarning shakli bilan tanishtirish.
5. Yozma shakldagi harflar yordamida bo'g'in, so'z va gap tuzishga o'rgatish.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan malakalar shakllangandan so'ng husnixat darslariga ular mustahkamlanadi. Husnixat malakasini shakllantirish uchun birinchi navbatda harflarning shaklini to'g'ri tasawur etishga, bir xil qiyalikda (65%) yozishga, so'zlarda harflarni to'g'ri bog'lashga so'zlarni qatorlarga to'g'ri joylashtirishga o'rgatiladi. Daftar chiziqlarini birin-ketin almashuvi davomida harflarning qiyaligini va ular orasidagi masofani to'g'ri saqlash kichik va bosh harflarning nisbatini to'g'ri chandalab yozishga o'rgatish juda muhimdir. Shuningdek husnixat darslarida malum gruppaga oid hraflarni yozishga o'rgatishda o'quvchilarda uchraydigan ayrim tipik xatolarning oldini olish va tuzatish ustida ham ish olib borish lozim. Yozuvning tezligi oshishi bilan ayrim bir-biriga o'xshash harflarning shaklini buzib yozish xollari uchraganda esa ularni qayta mashq qildirish lozim.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. G'ulomov M. "Boshlang'ich sinf o'quvchilarini husnixatga o'rgatish"
2. G'ulomov M. "Chiroyli yozuvni shakllantirish"